

1900-1930-YILLARDA TIBBIYOT SOHASIDAGI OLAMSHUMUL
O'ZGARISHLAR

Qosimov Asadxon Abduraxmon o'g'li

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti 1-kurs talabasi

E-mail: asadxonqosimov199@gmail.com

Ilmiy rahbar: Beknazarov Javohir Azimjon o'g'li

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX-asrning 1-yarmida tibbiyot sohasida erishilgan yutuqlar, yangi texnologiyalar, davolash metodlari va boshqa sohadagi yutuqlar tadqiq etilgan. Shifokor va olimlar anatomiya, fiziologiya, hamda tibbiy texnologiyalar sohasida ham sezilarli yutuqlarga erishib, diagnostika va davolash usullarini takomillashtirishga erishgan mutaxassislar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: fundamental izlanishlar, tibbiyot tarixi, fan-texnika rivojlanishi.

Аннотация: В статье рассматриваются достижения медицины, новые технологии, методы лечения и другие направления развития в первой половине XX века. Представлена информация о врачах и ученых, добившихся значительных успехов в области анатомии, физиологии и медицинских технологий, усовершенствовавших методы диагностики и лечения.

Ключевые слова: фундаментальные исследования, история медицины, научно-техническое развитие.

Abstract: The article examines the achievements of medicine, new technologies, treatment methods and other areas of development in the first half of the 20th century. Information is provided about doctors and scientists who have achieved significant success in the field of anatomy, physiology and medical technology, improving diagnostic and treatment methods.

Key words: fundamental research, history of medicine, scientific and technological development.

XX-asr dunyo tarixida va tibbiyot sohasida o'chmas iz qoldirdi. Bu insoniyat tarixida eng inqilobiy bosqich va nafaqat global o'zgarishlar, fan va texnika rivojlanishi, ko'p davlatlar iqtisodiy rivojlanishi bilan, balki revolyutsiyalar, jahon urushlari bilan, ichki davlat nizolari bilan, agressiv antropogen muhit yaratilishi bilan bog'liq. XX-asrda fan-texnika progressida yangi o'ram yuzaga keldi, u shunchalik kuchli bo'ldiki dunyo fan fikri bilan bog'liq 80% nazariyasi, yangiliklari, ma'lumoti shu yuz yillikka tegishli hisoblanadi.

XX asrda tibbiyotda katta o'zgarishlar bo'ldi. Birinchidan etibor markazida infeksiyon kasalliklar emas vaholanki, surunkali va degenerative kasalliklar turardi. Ikkinchidan ilmiy ayniqsa fundamental izlanishlar katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ular organism faoliyatini, kasalliklarni kelib chiqishini tushunishga yo'l qo'ydi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

XX asr uchun sog'liqni saqlash tiziminig, ishlab chiqarish tibbiyotining, shifokor assosiasiyalari, tibbiyot sug'urta kompaniyalarning intensive rivojlanishi xarakterlidir. Ruhiy, endokrin, onkologik, nasliy, infeksiyon kasalliklarning epidemiologiyasida katta o'zgarishlar yuzaga keldi.

Yuqumli kasalliklar asirlar ichida insoniyat o'limining asosiy sababchisi bo'lib turib, XX asrda mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya va farmakologiya kabi fanlarning rivojlanishiga turtki berdi.

Masalan, XX asr 20-yillarida meningokokkli meningit va pnevokokkli pnevmoniyalarning yangi davolash ishlari o'rganilgan. 1906-yilda meninggitga qarshi samarali zardob topilgan. O.Eyveri 1915- yilda pnevokokklar haqida publikasiya qilgan, 1929 yil A.Doshez antipnevmonokokk zardobini topgan.

Birinchi jahon urushida amerika harbiylari orasida terlamaga qarshi qilingan emlash kasallikning tarqalishini to'xtatgan. 1907-yil P.Erlix oqtrepansomaga qarshi spetsifik kimyo vositasini topgan va asrfenamin zamonaviy kimyoterapiyaga asossoldi. Yuqumli kasalliklar bilan kurashishda revalutsiyani A.Fleming bilan bog'lashadi. U 1928-yil penisillinni ochdan va bu dunyodagi birinchi antibiotik bo'lgan. X.Flori va E.Cheyn penisillinni pnevmonokokli pnevmoniyada gonokokkli infeksiyalarga qarshi qo'llanganda samaraligi isbotlangan.

XX asr tibbiyotining muhim yo'nalishlariga endokrinologiyani ham qo'shsa bo'ladi. Yozef fon Mering va Oskar Minkov 1899-yilda qandli diabet kasalligida oshqozon osti bezining bog'liqligini tajriba orqali isbotlab berdilar. Yigirma yildan keyin 1922-yil F.Banting va Ch.Best insulin garmonini olishga erishdilar, keyin 1936-yilda organizmda ko'pmuddatga saqlanadigan va ibsulinning ta'siri doirasini oshiruvchi insulinig protaminli kompleksi olindi.

Demak, 1913-yil K. Funk B1 vitaminini (tiamin gidroklorid) ni ajratib oldi. Bu vitamin beri-beri kasalligini davolashda eng yaxshi samarali vosita sifatida qo'llaniladi.

Yana bir nechta vitaminlar sintez qilingan, masalan:

Vitamin A (Retinol)-1913. Kashf etganlar: Elmer Makkolum va Marguerite Davis.

Vitamin C (Askarbin kislota)-1928. Kashf etganlar: Albert Szent Gyorg.

Vitamin D-1922. Kashf etganlar: Elmer makkolum va boshqalar.

Vitamin E (Tokoferol)-1922. Kashf qilganlar: Herbert Eduars va Katerina Bishob.

Vitamin K-1929. Kashf etgan: Henrik Dam.

Ushbu yillarda sohada kashf etilgan tibbiy uskunalar.

- 1895- yilda Vilgelm Rentgen tomonidan rentgen nurlari kashf etildi va bu kashfiyot takomillashtirilib tibbiyotga tadbiiq etildi va 1900-yilda rentgen apparati yaratildi.

- Elektrokardiograf (EKG)-1903 Vilyam Einthoven yurak ritmini o'lchash va yurak kasalliklariga tashhis qo'yish imkonini beradi.

- Insulin injektor-1921-yilda Frederik Banting va Charles Best insulin garmonini kashf qilganlaridan so'ng, uning sentezi va in'eksiya usulini ishlab chiqqanlar.

- Portativ rentgen apparati 1910-yilda Marie Kurie va uning jamoasi.

- Qon bosimini o'lchash asbobi (Sfingomanometr) 1905-yil ixtirochisi: Nikolay Karotkov.



- Qon guruhlarini aniqlash asbobi 1901-yil Karl Landsteiner.
- Jigar biopsiya ignasi 1923-yil ichki organ kasalliklari diagnostikasida qo'llaniladi.
- Temir o'pka (suniy nafas olish apparati) 1928-yil Filib Drinker va Luis Asis Bu kashfiyotlar albatta hammasi emas, ularning soni juda ko'p, bu kashfiyotlar soxada hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Tibbiyot tarixida 1928-yilda Alikssandr Fleming tomonidan penitsillinning kashf etilishi katta burilish yasadi.

1900-yillarning boshlarida gripp, chechak, bezgak, difteriya, qoqshol, tif va vabo kabi endimik va epidemik kasalliklarga to'la dunyoni davolashning yagona shakli vaksinalar edi. Bu vaqtda AQSh da umr ko'rish davomiyligi taxminan 30 yil edi. Bularga misol qilib, 1901- yil Difteriya antitoksini (ancha oldin kashf qilingan bo'lsada uzoq muddat davosi topilmagan), 1911- yil chumoq (tetanus) vaksinasini ishlab chiqilgan, 1914 - yil ko'kyo'tal (pertussis) vaksinasining ilk shakllari paydo bo'la boshladi, 1921-difteria vaksinasini ishlab chiqildi. 1926-yil ko'kyo'talga qarshi yaxshilangan vaksina, 1927-yil sil (BCG) vaksinasini ommaviy ravishda ishlab chiqarila boshlandi. 1927-yil sariq isitmavaksinasini ishlab chiqildi. 1909-qutirishga qarshi yaxshilangsan vaksina ishlab chiqildi. 1913-yil toksin-antitoksin defteria vaksinasini rivojlantirildi. 1915-yil pnevmokokk infeksiyasiga qarshi vaksina sinovdan o'tkazildi. 1923-yil Stivad Ramasami tomonidan stafilakokk vaksinasini ishlab chiqildi. 1930-yil meningokokk infeksiyasiga qarshi vaksina ishlab chiqildi. 1900-1930-yillar oralig'ida ishlab chiqilgan va qo'llanila boshlangan vaksinalar aholi orasida keng tarqaladigan yuqumli kasalliklarni kamaytirdi va aholining yashash umrini uzaytirdi.

1900-1930-yillarda birqancha kasalliklarni davolash uchun ishlab chiqilgan usul va metodikalari haqida qisqacha ta'riflasak. 1900-1930-yillar oralig'ida bir qancha muhim kasalliklarning davosi topilgan yoki samarali davolash usullari ishlab chiqilgan. Quyida shu davrda davosi topilgan bir qancha kasalliklar bilan tanishamiz.

Sil (Tuberkulyoz) 1921-yil Davo usuli: BCG (Bacillus Calmette Guerin) vaksinasini ishlab chiqildi.

Qandli diabet: 1921-yil, insulin ishlab chiqildi
Sifilis 1910-yil salvarsan (aesfenamin) antibiotigini Paul Ehrlich va Sahachiro ishlab chiqardi va shu orqali davolaniladi. Animiyan (Pernisioz anemiya) 1926-yilda Jigar ekstrakti bilan davolash (Vitamin B12 terapiyasining boshlanishi), George Minot va Uilyam Morfi tomonidan ishlab chiqilgan.

Difteriyaning davolash uchun 1923-yilda Difteria Taksoid vaksinasini ishlab chiqildi. Bu amaliyotning muhurligi shundaki, ushbu kasallik bolalar orasida keng tarqalgan va o'limga ham olib kelishi mumkin.

Quturish kasalligi (Rabies) 1900-yil vaksina orqali profilaktika qilinadi va davolaniladi. Ushbu va juda ko'p kasalliklarning, ushbu davrda davolaninsh usullari ishlab chiqildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, 1900-1930-yillarda tibbiyot sohasida ulkan burilish yasagan davr bo'ldi. Bu yillarda mikrobiologiya, farmakologiya va jarrohlik yo'nalishlarida qator muhim kashfiyotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, 1928-yilda

Aleksandr Fleming tomonidan penitsillinning kashf etilishi infeksiya kasalliklarini davolashda inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Shuningdek insulinning ishlab chiqarilishi qadri deabet bilan og'riqan bemorlar uchun hayotiy ahamiyat kasb etdi. Shifokor va olimlar anatomiya, fiziologiya, hamda tibbiy texnologiyalar sohasida ham sezilarli yutuqlarga erishib, diagnostika va davolash usullarini takomillashtirishga erishdilar. Radiologiya rivojlanishi, rentgen nurlari orqali kasallikni aniqlash imkoniyatining paydo bo'lishi tibbiyot tarixida muhim bosqich bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абиева, Н. М., & Джамалдинова, Ш. О. (2023). ЭТИКА ОБЩЕНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ АСПЕКТ ДИСЦИПЛИНЫ «КУЛЬТУРА РЕЧИ ВРАЧА» В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. Мир науки, культуры, образования, (5 (102)), 95-98.
2. Tuxtarov B.E. Gigiena tibbiy ekologiya. Toshkent-2023.
3. Rustamova X.E. va boshqalar. Tibbiyot tarixi. Toshkent-2023.
4. Джамалдинова, Ш. О., & Исмаилова, У. И. (2023). Актуальность симуляционных центров в становлении медицины будущего. Виртуальные технологии в медицине, 1(4), 359-361.
5. Джамалдинова, Ш. (2023). Bo 'lajak shifokorlarning muvaffaqiyatli faoliyatini rivojlantirishda hissiy va kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati. Общество и инновации, 4(4), 114-118.
6. Якубова, Ч., & Джамалдинова, Ш. О. (2025). ВОПРОСЫ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ВРАЧА КАК СОСТАВЛЯЮЩЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(3), 183-185.
7. Хамдамова, М., & Джамалдинова, Ш. О. (2025). ПРИОРИТЕТНЫЕ ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ВРАЧА. ТА'ЛИМ, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(2), 143-145.
8. Azizi, N., Podpera, R., Stur, M., & Obloberdiyevna, D. S. (2024). The Combined Role of Extensive Reading and Extensive Viewing for Enhancing English Literature Students' Literary Appreciation and Knowledge. Journal of Education Culture and Society, 15(2), 441-450.
9. Khonamri, F., Podpera, R., Kurilenko, V., & Obloberdiyevna, D. S. (2024). The Predictive Role of Teaching Experience in Teachers' Implementation of Metacognitive Knowledge. Journal of Education Culture and Society, 15(2), 237-247.
10. Джамалдинова, Ш. О. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ВРАЧА. Язык. Образование. Культура, 58-60.
11. Obloberdiyevna, D. S. (2023). Emotional and Communicative Competence of Students of Higher Medical Institutions. Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning, 1(1), 11-16.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

12. Махмудов, Л., & Джамалдинова, Ш. (2022). Ilm-fan va ta'limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 335-336.

13. Obloberdievna, D. S., & Seydaliyeva, B. E. (2021). Avicenna's contribution to world medicine. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 238-241.

14. Джамалдинова, Ш. О., НЕОБХОДИМОСТЬ, Т., & ОБРАЗОВАНИИ, И. Наука, образование и культура. 2022. № 2 (62). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-osnovy-problemnogo-obucheniya-i-neobhodimost-ihispolzovaniya-v-shkolnom-literaturnom-obrazovanii>.

